



O'ZBEK ADABIY TILI DARAJALANISHINING LEKSIK ASOSINI YARATISH ZARURATI

Satlikova Muhayyo Baxtiyorovna

**O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi 2-sonli Toshkent akademik litseyining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyo tilshunosligida til darajalarining o'rganilishi, shuningdek, hozirgi o'zbek adabiy tilida darajalanishning leksik asosini yaratish zarurati xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: til darajalari, axborot texnologiyalari, elektron lug'atlar, CEFR, Milliy sertifikat.

Til ma'naviy merosimizni asrash va boyitishning asosiy vositasi hisoblanadi. Tillarni saqlab qolish milliy ma'naviyatni saqlab qolish demakdir. Zero, asl ma'naviyat faqat milliy shakldagina mavjud bo'ladi. Mamlakatimizda tilga e'tibor ma'naviyatga e'tiborning ustuvor yo'nalishlaridan biri darajasiga ko'tarildi. Shu bois, ona tilimizni avaylab-asrash, boyitish, undan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish bilan birga, o'zbek tilining zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimida keng qo'llanishiga erishish kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifaga aylandi. Chunki ona tilimizning jahonga chiqishiga erishish milliy ma'naviyatni takomillashtirish va yuksaltirishning asosiy yo'llaridandir.

Zamonaviy axborot texnologiyalari tilning funktsional imkoniyatlaridan foydalanish borasida benihoya keng qulayliklar eshigini ochdi. Kompyuter tarjimasi, tahriri, tahlili, elektron lug'atlar va tezaurus(til xazinas)i lar fikrimiz tasdig'idir. Ayniqsa, zamonaviy elektron lug'atlar tuzish va ulardan foydalanish madaniyatini shakllantirish til imkoniyatini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda har bir sohada axborot-texnologiyalaridan unumli foydalanishga, dasturiy ta'minot asosida tuziladigan loyihalarga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining bir qancha qarorlari va farmonlari, farmoyishlari qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 30-maydagi "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda gi "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 1-fevralda gi "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1730 sonli qarori va shu kabilar misol bo'la oladi.

Bugungi kunda amaliy tilshunosligimiz oldida turgan eng muhim masalalardan biri – o'zbek tili birinchi, ikkinchi va uchinchi darajalarining leksik, morfologik va sintaktik asosini



yaratishdir. Jahon tajribasiga tayanib, o'zbek tilining tabiatini hisobga olgan holda o'zbek tili darajalarining leksik asosini yaratish lozim. Tilning lingvistik sathlararo darajalanishida quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- Tilning leksik sathining ko'lamini o'rganish, ya'ni o'zbek tili izohli lug'atlari bilan tanishib chiqish;
- Leksik darajalanishda chastotali lug'atlardan unumli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish;
- Tilni o'qitish va uni baholash metodlari bilan tanishib chiqish;
- Birinchi daraja uchun muhim bo'lgan leksik qamrovni aniqlashda o'quvchilar, talabalar va til o'rganuvchilar uchun maxsus eksperiment metodlarini ishlab chiqish;
- Tillarni o'qitish va baholashda Yevropa standarti va DTS talablarini solishtirish hamda o'zaro moslashtirish;
- Leksik sathni darajalash va bu orqali o'zbek tili profillarini yaratishga tavsiya berish va b.q.

Hozirgi o'zbek tilshunosligining nazariyasi, grammatik qonuniyatlari XX asrdan tilning sistem tabiatiga ko'ra tizimlashtirila boshlandi. Tilshunoslikda ushbu nazariyalarga asoslangan tizimli amaliyotga yondashish vaqti kelgan bir paytda o'zbek adabiy tilining darajalanishi ayni muddao. Bunda jahon tilshunosligi nazariyasi va amaliyotiga tayanib, CEFRL va IELTS qonun-qoida va ko'nikmalariga asoslangan holda ona tilimizning yangi darajalanish qolipi yaratiladi. Tilni darajalash xalqaro maqomdagi tillar va jahon tillari miqyosida amalga oshirilgan bo'lib, o'zbek adabiy tili uchun nazariy va amaliy yangilik hisoblanadi.

O'zbekistonning davlat tili - o'zbek tili ham tarixiy taraqqiyot natijasida adabiy til sifatida shakllanib, hozirda butun dunyo bo'yicha ellik milliondan ortiq iste'molchilariga egadir. O'zbek tilidan foydalanuvchilar ko'lamining oshishida o'zbek tilining mukammal grammatikasini ishlab chiqish va o'rgatishning oson va aniq me'yorlarini belgilash nafaqat xorijliklarning til o'rganishi, balki o'zbek xalqi savodxonligini oshirishga ham xizmat qiladi. Xalqaro tillarning o'ziga xosligi ularning grammatikasi ma'lum me'yorlar, qonun-qoidalar asosida barcha uchun umumiy o'rgatish va o'rganish qolipi - darajalanganligi bilan bog'liqdir. Jahonning barcha tillarida tipologik universal hodisalar ularni o'rganish metodlari uchun ham amal qiladi, ya'ni tillar nazariyasi va amaliy metodologiyasi bir-biri bilan o'zaro oziqlanadi. Shundan kelib chiqib, o'zbek adabiy tilini darajalash tilshunoslikda zamonaviylik va aniqlikka asoslangan hodisa sifatida tub burilish yasaydi. Buning uchun, avvalo, lingvistik darajalangan tillar, ularning qonuniyatlari, darajalanish tamoyillari bilan tanishish va darajalangan tillarning umumiy hamda differensial jihatlarini aniqlash lozim. Bu borada biz o'z-o'zidan mamlakatimizda eng keng tarqalgan va boshqa tillarga nisbatan qiziquvchilar soni ko'pligi jihatidan ingliz tilining darajalanishiga asoslanamiz.

Bugungi kunda dunyoda yetti mingdan ortiq tillar ichida ikki yuzga yaqini rasmiy davlat tili



sifatida iste'moldadir. Biroq, tilning “tirikligi” milliy tilga rasmiy til maqomini berish bilan o'lanmaydi. Dunyoda har bir tilning nufuzi va mavqeyini oshirish ushbu tilda gaplashuvchilar sonining oshib borishi hamda iste'mol ko'lamining kengayishi bilan bog'liq. Bu esa tilning ijtimoiy yashovchanligini belgilovchi omillardan biridir. Tilning “tirikligi” o'z navbatida o'sha xalqning etnik barqarorligini ta'minlaydi. Shunday ekan, o'zbek tili darajalarining leksik asosini yaratish bugungi tilshunosligimiz oldidagi eng ustuvor vazifalardan bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dr. Yohann Shustereder. Beshinchi o'quv moduli: Chet tilini o'qitish (FCG International Ltd, tarjima ingliz tilidagi versiya asosida). - Finlandiya. 2017.
2. Tillar leksikasini Yevropa standati (CEFR) bo'yicha baholanish tamoyillari; -Yevropa kengashi, 1996.
3. Franchise Kusseling. Fransus tilini o'qitish va o'rganishda so'z boyligining Yevropa standarti (CEFR) bo'yicha baholanishi//Dsc. –Fransiya, 2012.

O'ZBEK ADABIY TILI DARAJALANISHINING LEKSIK ASOSINI YARATISH ZARURATI

Satlikova Muhayyo Baxtiyorovna
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
2-sonli Toshkent akademik litseyining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyo tilshunosligida til darajalarining o'rganilishi, shuningdek, hozirgi o'zbek adabiy tilida darajalanishning leksik asosini yaratish zarurati xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: til darajalari, axborot texnologiyalari, elektron lug'atlar, CEFR, Milliy sertifikat.

Til ma'naviy merosimizni asrash va boyitishning asosiy vositasi hisoblanadi. Tillarni saqlab qolish milliy ma'naviyatni saqlab qolish demakdir. Zero, asl ma'naviyat faqat milliy shakldagina mavjud bo'ladi. Mamlakatimizda tilga e'tibor ma'naviyatga e'tiborning ustuvor yo'nalishlaridan biri darajasiga ko'tarildi. Shu bois, ona tilimizni avaylab-asrash, boyitish, undan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish bilan birga, o'zbek tilining zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimida keng qo'llanishiga erishish kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifaga aylandi. Chunki ona tilimizning jahonga chiqishiga erishish milliy ma'naviyatni takomillashtirish va yuksaltirishning asosiy yo'llaridandir.

Zamonaviy axborot texnologiyalari tilning funktsional imkoniyatlaridan foydalanish borasida benihoya keng qulayliklar eshigini ochdi. Kompyuter tarjimasi, tahriri, tahlili, elektron lug'atlar va tezaurus(til xazinas)i)lar fikrimiz tasdig'idir. Ayniqsa, zamonaviy elektron



lugʻatlar tuzish va ulardan foydalanish madaniyatini shakllantirish til imkoniyatini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda har bir sohada axborot-texnologiyalaridan unumli foydalanishga, dasturiy ta'minot asosida tuziladigan loyihalarga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining bir qancha qarorlari va farmonlari, farmoyishlari qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 30-maydagi “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida”gi farmoni, O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda “Axborotlashtirish to'g'risida”gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 1-fevraldagi “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-1730 sonli qarori va shu kabilar misol bo'la oladi.

Bugungi kunda amaliy tilshunosligimiz oldida turgan eng muhim masalalardan biri – o'zbek tili birinchi, ikkinchi va uchinchi darajalarining leksik, morfologik va sintaktik asosini yaratishdir. Jahon tajribasiga tayanib, o'zbek tilining tabiatini hisobga olgan holda o'zbek tili darajalarining leksik asosini yaratish lozim. Tilning lingvistik sathlararo darajalanishida quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- Tilning leksik sathining ko'lamini o'rganish, ya'ni o'zbek tili izohli lug'atlari bilan tanishib chiqish;
- Leksik darajalanishda chastotali lug'atlardan unumli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish;
- Tilni o'qitish va uni baholash metodlari bilan tanishib chiqish;
- Birinchi daraja uchun muhim bo'lgan leksik qamrovni aniqlashda o'quvchilar, talabalar va til o'rganuvchilar uchun maxsus eksperiment metodlarini ishlab chiqish;
- Tillarni o'qitish va baholashda Yevropa standarti va DTS talablarini solishtirish hamda o'zaro moslashtirish;
- Leksik sathni darajalash va bu orqali o'zbek tili profillarini yaratishga tavsiya berish va b.q.

Hozirgi o'zbek tilshunosligining nazariyasi, grammatik qonuniyatlari XX asrdan tilning sistem tabiatiga ko'ra tizimlashtirila boshlandi. Tilshunoslikda ushbu nazariyalarga asoslangan tizimli amaliyotga yondashish vaqti kelgan bir paytda o'zbek adabiy tilining darajalanishi ayni muddao. Bunda jahon tilshunosligi nazariyasi va amaliyotiga tayanib, CEFRL va IELTS qonun-qoida va ko'nikmalariga asoslangan holda ona tilimizning yangi darajalanish qolipi yaratiladi. Tilni darajalash xalqaro maqomdagi tillar va jahon tillari miqyosida amalga oshirilgan bo'lib, o'zbek adabiy tili uchun nazariy va amaliy yangilik hisoblanadi.

O'zbekistonning davlat tili - o'zbek tili ham tarixiy taraqqiyot natijasida adabiy til sifatida shakllanib, hozirda butun dunyo bo'yicha ellik milliondan ortiq iste'molchilariga egadir.



O'zbek tilidan foydalanuvchilar ko'lamining oshishida o'zbek tilining mukammal grammatikasini ishlab chiqish va o'rgatishning oson va aniq me'yorlarini belgilash nafaqat xorijliklarning til o'rganishi, balki o'zbek xalqi savodxonligini oshirishga ham xizmat qiladi. Xalqaro tillarning o'ziga xosligi ularning grammatikasi ma'lum me'yorlar, qonun-qoidalar asosida barcha uchun umumiy o'rgatish va o'rganish qolipi - darajalanganligi bilan bog'liqdir. Jahonning barcha tillarida tipologik universal hodisalar ularni o'rganish metodlari uchun ham amal qiladi, ya'ni tillar nazariyasi va amaliy metodologiyasi bir-biri bilan o'zaro oziqlanadi. Shundan kelib chiqib, o'zbek adabiy tilini darajalash tilshunoslikda zamonaviylik va aniqlikka asoslangan hodisa sifatida tub burilish yasaydi. Buning uchun, avvalo, lingvistik darajalangan tillar, ularning qonuniyatlari, darajalanish tamoyillari bilan tanishish va darajalangan tillarning umumiy hamda differensial jihatlarini aniqlash lozim. Bu borada biz o'z-o'zidan mamlakatimizda eng keng tarqalgan va boshqa tillarga nisbatan qiziquvchilar soni ko'pligi jihatidan ingliz tilining darajalanishiga asoslanamiz.

Bugungi kunda dunyoda yetti mingdan ortiq tillar ichida ikki yuzga yaqini rasmiy davlat tili sifatida iste'moldadir. Biroq, tilning “tirikligi” milliy tilga rasmiy til maqomini berish bilan o'lanmaydi. Dunyoda har bir tilning nufuzi va mavqeyini oshirish ushbu tilda gaplashuvchilar sonining oshib borishi hamda iste'mol ko'lamining kengayishi bilan bog'liq. Bu esa tilning ijtimoiy yashovchanligini belgilovchi omillardan biridir. Tilning “tirikligi” o'z navbatida o'sha xalqning etnik barqarorligini ta'minlaydi. Shunday ekan, o'zbek tili darajalarining leksik asosini yaratish bugungi tilshunosligimiz oldidagi eng ustuvor vazifalardan bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

4. Dr. Yohann Shustereder. Beshinchi o'quv moduli: Chet tilini o'qitish (FCG International Ltd, tarjima ingliz tilidagi versiya asosida). - Finlandiya. 2017.
5. Tillar leksikasini Yevropa standarti (CEFR) bo'yicha baholanish tamoyillari; -Yevropa kengashi, 1996.
6. Franchoise Kusseling. Fransus tilini o'qitish va o'rganishda so'z boyligining Yevropa standarti (CEFR) bo'yicha baholanishi//Dsc. –Fransiya, 2012.